

RIM STATUTIGA EKOTSIDNI BESHINCHI XALQARO JINOYAT SIFATIDA QO'SHISH TAKLIFI: HUQUQIY, SIYOSIY VA AMALIY TAHLIL

Ismoilov Mavludbek Mukimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura talabasi

ismoilovmavludbek@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-0442-1898>

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekotsidni Rim Statutiga beshinchi xalqaro jinoyat sifatida qo'shish zarurati huquqiy, siyosiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot Rim Statutining mavjud tuzilmasi, xalqaro jinoyat huquqi evolyutsiyasi va ekotsidga oid xalqaro tashabbuslar – xususan 2021-yilgi Stop Ecocide Foundation loyihasi va Vanuatu hamda boshqa davlatlar tomonidan ilgari surilgan takliflar asosida olib boriladi. Maqolada ekotsidni tan olishning xalqaro huquqiy asoslari, davlatlar o'rtasidagi siyosiy pozitsiyalar, geosiyosiy muvozanat va xalqaro jinoiy sud yurisdiksiyasi doirasida yuzaga keladigan institutsional muammolar yoritiladi. Muallif shuningdek, ekologik xavfsizlikni xalqaro jinoiy adolat doirasida ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni taklif etadi hamda ekotsidni jinoiylashtirish global ekologik boshqaruvning ajralmas qismiga aylanishi lozimligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: *Ekotsid, Rim Statuti, xalqaro jinoyat huquqi, beshinchi jinoyat, Xalqaro jinoiy sud, Stop Ecocide, ekologik xavfsizlik, siyosiy muvozanat, xalqaro huquqiy islohot.*

XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan ekologik inqiroz insoniyat oldiga yangi huquqiy vazifalarni qo'ymoqda. Global iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va atrof-muhitning keng ko'lamli degradatsiyasi xalqaro huquq tizimida tubdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Aynan shu kontekstda Rim

Statutiga ekotsidni beshinchi xalqaro jinoyat sifatida kiritish taklifi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekotsid kontseptsiyasi ilk bor 1970-yillarda amerikalik biolog Artur Galston tomonidan Vetnam urushi davrida qo'llanilgan kimyoviy qurollarning atrof-muhitga yetkazgan zararini tavsiflash uchun ishlatilgan [1]. O'shandan beri bu atama xalqaro huquqiy doirada tobora kengroq qo'llanila boshladi. Bugungi kunda ekotsidni xalqaro jinoyat sifatida tan olish masalasi nafaqat akademik doiralarda, balki siyosiy maydonlarda ham faol muhokama qilinmoqda.

Ekotsid tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi xalqaro ekologik huquqning umumiy evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq. 1972-yilda Stokgolmda bo'lib o'tgan BMT Inson muhiti bo'yicha konferensiyasi atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro ahamiyatini tan olgan ilk global tadbirlardan biri bo'ldi [2]. Ushbu konferensiyadan keyin xalqaro hamjamiyat atrof-muhitga yyetkazilgan jiddiy zarar uchun huquqiy javobgarlikni o'rnatish zaruratini anglay boshladi.

Ekotsidning zamonaviy ta'rifi 2021-yilda xalqaro huquqshunoslardan iborat mustaqil ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning taklifiga ko'ra, ekotsid "atrof-muhitga jiddiy va keng ko'lamli yoki uzoq muddatli zarar yyetkazilishi ehtimoli mavjudligini bila turib amalga oshirilgan noqonuniy yoki o'ta beparvo harakatlar" sifatida ta'riflanadi [3]. Bu ta'rif uchta asosiy elementni o'z ichiga oladi: birinchidan, harakatning noqonuniy yoki o'ta beparvo xarakterda bo'lishi; ikkinchidan, atrof-muhitga yyetkazilgan zararning jiddiy, keng ko'lamli yoki uzoq muddatli bo'lishi; uchinchidan, qasdning mavjudligi yoki kamida ehtiyotsizlik darajasida ayb mavjudligi.

Tarixiy jihatdan ekotsid g'oyasi xalqaro gumanitar huquq doirasida rivojlangan. 1977-yilgi Jeneva konvensiyalariga birinchi Qo'shimcha protokolning 35 va 55-moddalari urush davrida atrof-muhitga yetkazilgan zararni taqiqlaydi [4]. Biroq, bu normalar faqat qurolli mojaro sharoitida qo'llaniladi va tinchlik davrida sodir etilgan ekologik jinoyatlarni qamrab olmaydi.

Ekotsid kontseptsiyasining rivojlanishida muhim bosqich 1998-yilda Rim Statutining qabul qilinishi paytida yuz berdi. O'sha paytda bir qator davlatlar,

jumladan, Vetnam, ekotsidni Xalqaro jinoyat sudining yurisdiksiyasiga kiritishni taklif qilishgan edi [5]. Biroq, bu taklif yetarli qo'llab-quvvatlash topa olmadi va natijada Statut faqat to'rtta asosiy jinoyatni o'z ichiga oldi.

Hozirgi kunda ekotsid tushunchasining huquqiy mazmuni xalqaro ekologik huquqning turli manbalaridan kelib chiqadi. Rio-de-Janeyroda 1992-yilda qabul qilingan Atrof-muhit va taraqqiyot to'g'risidagi deklaratsiyaning 2-printsipi davlatlarning o'z hududidan tashqarida atrof-muhitga zarar etkazmaslik majburiyatini belgilaydi [6]. Shuningdek, Orxus konvensiyasi ekologik masalalarda axborot olish, qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va adolatga murojaat qilish huquqlarini mustahkamlaydi [7].

Rim Statutiga ekotsidni kiritish uchun bir nechta huquqiy asoslar mavjud. Birinchidan, Statutning 5-moddasi Xalqaro jinoyat sudi yurisdiksiyasiga kiruvchi jinoyatlar ro'yxatini kengaytirish imkoniyatini nazarda tutadi. Statutning 121 va 123-moddalari tuzatishlar kiritish tartibini belgilaydi, bu esa yangi jinoyat turlarini qo'shish uchun huquqiy mexanizmni ta'minlaydi [8].

Ikkinchidan, xalqaro odatiy huquq atrof-muhitni muhofaza qilish majburiyatini tan oladi. Xalqaro Sud 1996-yilda yadro qurollaridan foydalanish yoki ular bilan tahdid qilishning qonuniyligi to'g'risidagi mashhur konsultativ xulosasida atrof-muhitni hisobga olish zaruratini ta'kidlagan [9]. Sud atrof-muhitning o'zi alohida huquq subyekti bo'lmasa-da, u insoniyatning hozirgi va kelajak avlodlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etdi.

Uchinchidan, zamonaviy xalqaro huquqda "erga omnes" majburiyatlar kontseptsiyasi mavjud bo'lib, u barcha davlatlar oldidagi majburiyatlarni anglatadi. Barselona Traction ishida Xalqaro Sud ba'zi xalqaro majburiyatlar butun xalqaro hamjamiyat oldida bajarilishi kerakligini tan oldi [10]. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ayniqsa global ekologik tizimlarni saqlash, aynan shunday majburiyatlar qatoriga kiradi.

To'rtinchidan, ekotsidni jinoyatlashtirish xalqaro huquqning progressiv rivojlanishi tamoyiliga mos keladi. BMT Nizomining 13-moddasi Bosh Assambleyaga

xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish va progressiv rivojlantirish vakolatini beradi [11]. Ekotsidni xalqaro jinoyat sifatida tan olish aynan shunday progressiv rivojlanishning namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Shuningdek, milliy qonunchilik tajribasi ham muhim ahamiyatga ega. Hozirda o'ndan ortiq davlatlar, jumladan, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Belorussiya, Ukraina, Gruziya, Armeniya, Moldova va Vetnam o'z jinoyat kodekslarida ekotsidni alohida jinoyat turi sifatida belgilagan. Bu milliy tajribalar xalqaro darajada ekotsidni jinoyatlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Rim Statutiga ekotsidni kiritish taklifi murakkab siyosiy va diplomatik jarayonni o'z ichiga oladi. 2019-yilda Vanuatu va Maldiv orollari Xalqaro jinoyat sudi Assambleyasida bu masalani rasmiy ravishda ko'tarishdi [12]. Ularning tashabbusi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa iqlim o'zgarishidan eng ko'p zarar ko'rayotgan kichik orol davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yevropa Ittifoqi doirasida ham bu masala faol muhokama qilinmoqda. 2021-yilda Yevropa Parlamenti ekotsidni xalqaro jinoyat sifatida tan olishni qo'llab-quvvatlovchi rezolyutsiya qabul qildi [13]. Fransiya, Belgiya, Finlyandiya kabi davlatlar bu tashabbusni faol qo'llab-quvvatlamogda.

Biroq, bu taklifga qarshilik ham mavjud. Ayrim yirik sanoat davlatlari, jumladan, AQSh, Xitoy va Hindiston bu masalada ehtiyotkor pozitsiyani egallamoqda. Ularning asosiy xavotirlari iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilish, suverenitetning cheklanishi va huquqiy noaniqlik bilan bog'liq. AQSh Rim Statutining ishtirokchisi emasligi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi.

Diplomatik jihatdan konsensusga erishish uchun bir nechta strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Birinchidan, bosqichma-bosqich yondashuv taklif etilmoqda, bunda dastlab ko'ngilli ravishda qo'shilish mexanizmi yaratiladi. Ikkinchidan, ekotsid ta'rifini tor doirada belgilash orqali eng jiddiy holatlarni qamrab olish taklif qilinmoqda. Uchinchidan, rivojlanayotgan davlatlar uchun texnik yordam va sig'im yaratish dasturlari nazarda tutilmoqda.

Ekotsidning huquqiy ta'rifini ishlab chiqish bir qator murakkab masalalarni o'z ichiga oladi. Eng asosiy muammo "jiddiy va keng ko'lamli yoki uzoq muddatli zarar" tushunchasini aniq belgilashdir. Har bir element alohida e'tibor talab qiladi va xalqaro huquqda bir xil talqin qilinishi kerak.

"Jiddiy zarar" tushunchasi atrof-muhitga yetkazilgan ta'sirning intensivligi va chuqurligini bildiradi. Xalqaro ekspertlar bu mezonni baholashda ekotizimlarning funksional yaxlitligining buzilishi, tur populyatsiyalarining sezilarli kamayishi yoki inson salomatligiga bevosita tahdid mavjudligini hisobga olishni taklif qilmoqda [14]. Masalan, katta hajmdagi neft to'kilishi, radioaktiv ifloslanish yoki toksik chiqindilarning keng tarqalishi jiddiy zarar sifatida baholanishi mumkin.

"Keng ko'lamli zarar" geografik qamrovni bildiradi. Bu yerda asosiy savol qancha maydon zarar ko'rishi kerakligi bilan bog'liq. Ba'zi ekspertlar minglab kvadrat kilometrlarni qamrab olgan zararni keng ko'lamli deb hisoblashni taklif qilmoqda [15]. Boshqalar esa nisbiy yondashuvni qo'llab-quvvatlab, zarar ko'rgan hudud ahamiyatini, masalan, noyob ekotizimlar yoki muhofaza qilinadigan hududlarni hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi.

"Uzoq muddatli zarar" vaqt o'lchovi bilan bog'liq bo'lib, Xalqaro gumanitar huquqda bu atama o'n yillar davomida davom etadigan zararni bildiradi. Biroq, ekotsid kontekstida bu muddatni qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud. Ba'zi mutaxassislar bir necha yil davom etadigan zararni ham uzoq muddatli deb hisoblash kerakligini ta'kidlamoqda, chunki zamonaviy ekologik inqiroz tez sur'atlarda rivojlanmoqda.

Jinoyatning subyektiv tomoni ham muhim ahamiyatga ega. Taklif etilgan ta'rifda "qasddan" yoki "ehtiyotsizlik" standartlari nazarda tutilgan. Bu degani, aybdor shaxs o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilgan yoki ko'rishi kerak edi. Biroq, korporativ javobgarlik kontekstida bu elementni isbotlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki qarorlar ko'pincha murakkab tashkiliy tuzilmalar doirasida qabul qilinadi.

Noqonuniylik elementi ham alohida e'tibor talab qiladi. Qaysi harakatlar "noqonuniy" hisoblanishi milliy va xalqaro huquq me'yorlariga bog'liq. Bu yerda

asosiy muammo turli huquq tizimlarida ekologik standartlarning farq qilishidir. Bir davlatda qonuniy hisoblangan faoliyat boshqa davlatda noqonuniy bo'lishi mumkin.

Xalqaro jinoyat sudining mavjud yurisdiksiyon tamoyillari ekotsid kontekstida qanday qo'llanilishi muhim masala hisoblanadi. Rim Statutining 12-moddasiga ko'ra, Sud jinoyat sodir etilgan davlat hududi yoki ayblanuvchi fuqaroligi asosida yurisdiksiyaga ega. Ekotsid ko'pincha transchegaraviy xarakterga ega bo'lganligi sababli, yurisdiksiya masalasi murakkablashadi.

Bu masalada vaqtinchalik yurisdiksiya ham muhim ahamiyatga ega hisoblanib, Rim Statutining 11-moddasi Sudning faqat Statut kuchga kirganidan keyingi jinoyatlar ustidan yurisdiksiyaga ega ekanligini belgilaydi. Agar ekotsid yangi jinoyat sifatida kiritilsa, faqat tegishli tuzatish kuchga kirganidan keyingi harakatlar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu esa o'tmishdagi ekologik jinoyatlar uchun javobgarlikni istisno qiladi.

Komplementarlik printsiipi Rim Statutining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. 17-moddaga ko'ra, milliy sudlar birinchi navbatda jinoyatlarni tergov qilish va jinoiy ta'qib qilish majburiyatiga ega. Xalqaro jinoyat sudi faqat milliy sudlar tayyor emas yoki qodir bo'lmagan hollarda aralashadi. Ekotsid kontekstida bu prinsipning qo'llanilishi milliy ekologik qonunchilik va sud amaliyotining rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Sud oldida turgan yana bir muhim masala - bu isbotlash standarti bo'lib, Jinoyat sudlarida har qanday asosli shubhadan tashqari isbotlash talab qilinadi. Ekotsid holatlarida ilmiy dalillar, ekspert xulosalari va ekologik monitoring ma'lumotlari asosiy rol o'ynaydi. Biroq, atrof-muhitga yetkazilgan zararning to'liq hajmini aniqlash ko'pincha uzoq vaqt talab qiladi va ilmiy noaniqliklar mavjud bo'lishi mumkin.

Individual jinoiy javobgarlik masalasi ham alohida e'tibor talab qiladi. Rim Statutining 25-moddasi individual jinoiy javobgarlikning turli shakllarini belgilaydi. Ekotsid ko'pincha korporativ faoliyat natijasida sodir bo'lganligi sababli, korporativ rahbarlar va qaror qabul qiluvchilarning javobgarligini aniqlash muhimdir. Buyruq berish javobgarligi doktrinasi bu kontekstda qo'llanilishi mumkin.

Ekotsid jinoyatlarini tergov qilish va jinoiy ta'qib qilish bir qator amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, texnik ekspertiza va ilmiy dalillarni to'plash murakkab va qimmat jarayondir. Ekologik zarar ko'pincha keng hududlarni qamrab oladi va uning to'liq hajmini aniqlash uchun uzoq muddatli monitoring talab qilinadi.

Ikkinchidan, guvohlar va jabrlanuvchilarni aniqlash muammosi mavjud sanalib, Ekotsid jinoyatlarida bevosita jabrlanuvchilar doirasi juda keng bo'lishi va ular turli davlatlarda joylashgan bo'lishi mumkin. Mahalliy jamoalar, ko'chmas mulk egalari, baliqchilar, fermerlar va boshqa manfaatdor tomonlarning huquqlarini himoya qilish murakkab vazifadir.

Uchinchidan, transchegaraviy hamkorlik zaruriyati mavjud. Ekotsid ko'pincha bir nechta davlatlar hududiga ta'sir qiladi, shuning uchun samarali tergov uchun xalqaro huquqiy yordam va ma'lumot almashinuvi talab qilinadi. Mavjud xalqaro hamkorlik mexanizmlari, masalan, o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalar, ekotsid holatlariga moslashtirilishi kerak.

To'rtinchidan, vaqtinchalik choralar masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, Rim Statutining 57-moddasi tergov palatasiga vaqtinchalik choralar qo'llash vakolatini beradi. Ekotsid kontekstida bu davom etayotgan ekologik zararni to'xtatish yoki kamaytirish uchun tezkor choralar ko'rishni o'z ichiga olishi mumkin.

Beshinchidan, reparaatsiya va rehabilitatsiya masalalari alohida e'tibor talab qiladi. Rim Statutining 75-moddasi jabrlanuvchilar uchun reparaatsiya mexanizmini nazarda tutadi. Ekotsid holatlarida bu ekotizimlarni tiklash, ifloslanishni tozalash va zarar ko'rgan jamoalarga kompensatsiya to'lashni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, ekologik zararining to'liq qiymatini baholash va tegishli kompensatsiya miqdorini aniqlash murakkab iqtisodiy va ilmiy masaladir.

Rim Statutiga ekotsidni kiritish bir qator muhim oqibatlarga olib kelishi kutilmoqda. Birinchidan, bu xalqaro ekologik huquqning sezilarli mustahkamlanishiga yordam beradi. Eng jiddiy ekologik jinoyatlar uchun individual jinoiy javobgarlikni

oʻrnatish orqali xalqaro hamjamiyat atrof-muhitni muhofaza qilishga boʻlgan majburiyatini yanada kuchaytiradi.

Ikkinchidan, oldini olish effekti kutilmoqda. Potentsial jinoiy javobgarlik tahdidi korporativ rahbarlar va hukumat amaldorlarini ekologik xavfli qarorlar qabul qilishda ehtiyotkor boʻlishga undaydi. Bu ayniqsa yirik sanoat loyihalar, kon qazish ishlari va boshqa ekologik xavfli faoliyatlar kontekstida muhimdir.

Uchinchidan, milliy qonunchilikka taʼsir kutilmoqda. Rim Statutiga aʼzo davlatlar oʻz milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishi kerak boʻladi. Bu esa global miqyosda ekologik jinoyatlarga qarshi kurashning yanada samarali tizimini yaratishga yordam beradi.

Toʻrtinchidan, xalqaro hamkorlikning kuchayishi kutilmoqda. Ekotsidni jinoiy taʼqib qilish uchun davlatlar oʻrtasida texnik ekspertiza, maʼlumot almashinuvi va huquqiy yordam boʻyicha hamkorlik zarur boʻladi. Bu esa ekologik masalalar boʻyicha xalqaro hamkorlikning umumiy darajasini oshirishi mumkin.

Beshinchidan, korporativ masʼuliyat madaniyatining rivojlanishi kutilmoqda. Ekotsid uchun jinoiy javobgarlik tahdidi kompaniyalarni ekologik risk-menejment tizimlarini takomillashtirishga, ekologik standartlarga rioya qilishni kuchaytirishga va barqaror rivojlanish tamoyillarini oʻz faoliyatiga chuqurroq integratsiya qilishga undaydi.

Yuqoridagi tahliliy maʼlumotlarni inobatga olgan holda Ekotsid jinoyatini Rim Statutiga beshinchi xalqaro jinoyat sifatida kiritish tashabbusi insoniyat taraqqiyoti tarixida ekologik xavfsizlikni ilk bor jinoiy adolat mezonlari bilan himoya qilish yoʻlida tashlanayotgan strategik qadamdir. Mavjud toʻrt xalqaro jinoyat – genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va tajovuz jinoyatlarining har biri inson hayoti, tinchlik va xavfsizlikka tahdid sifatida tan olingan. Ekotsid esa, oʻz mohiyatiga koʻra, nafaqat insonlar, balki butun ekotizimlar va avlodlararo yashash huquqiga qarshi sodir etiladigan jiddiy huquqbuzarlikdir. Shu bois, Rim Statutining konseptual tamoyillariga zid boʻlmagan holda, unga ekotsidni qoʻshish huquqiy, siyosiy va amaliy jihatdan asoslangan global harakat sifatida shakllanishi lozim.

Avvalo, Rim Statutiga ekotsidni kiritishning huquqiy asoslari xalqaro shartnomaviy mexanizm, odat huquqi va umumiy xalqaro huquq tamoyillarida mavjud. 2021-yilda Stop Ecocide Foundation tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy ta'rif xalqaro jinoyat huquqida jinoyat tarkibi mezonlariga javob beradi. Shuningdek, ekotsidga oid jinoiy ta'rif Parij kelishuvi, BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari, Rio deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlardagi ekologik majburiyatlarga hamohang bo'lib, mavjud xalqaro ekologik me'yorlarni jinoiy tusda mustahkamlash imkonini beradi.

Mazkur taklifning siyosiy asoslanishi esa davlatlararo manfaatlar muvozanatini inobatga olgan holda ilgari surilishi lozim. Ekotsid bo'yicha jinoiy ta'rif ishlab chiqishda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tarixiy ekologik tengsizlik, transmilliy korporatsiyalar faoliyati, va suverenitetga oid ehtiyotkorlik nuqtalari inobatga olinmog'i zarur. Rim Statuti ishtirokchilari bo'lgan ayrim G'arb davlatlarining ekotsidga qarshi kurash bo'yicha siyosiy irodasi mavjud bo'lsa-da, ularning sanoat manfaatlari ushbu islohotni rad etishga moyil ekanini inkor qilib bo'lmaydi. Shu bois, bu tashabbusni global Janub davlatlari – Ekvador, Boliviya, Vanuatu, Maldiv orollari kabi iqlim o'zgarishidan bevosita zarar ko'ruvchi mamlakatlar tomonidan ilgari surilishi geosiyosiy asosda mantiqan to'g'ridir. Ularning yetakchiligida ekotsidni Rim Statutiga kiritish masalasi XJSga a'zo davlatlar Assambleyasiga (ASP) rasmiy tartibda taklif etilishi va muhokamaga chiqarilishi mumkin.

Amaliy jihatdan esa ekotsidni jinoiylashtirish uchun Rim Statutiga qo'shimcha modda kiritish, ya'ni 5-moddaning 1-bandiga beshinchi jinoyat sifatida "ecocide" atamasini qo'shish va unga alohida 8-bob ostida jinoyat tarkibini ta'riflovchi modda yozilishi zarur. Bu modda jinoiy harakatlarning obyektiv belgilari, zararning tabiati (keng ko'lamli, uzoq muddatli, jiddiy), subyektiv tomon (ayovsiz yoki ongli harakatlar), va yuridik subyekt (shaxsiy javobgarlik yoki yuqori lavozimli rahbarlar) mezonlarini aniq ko'rsatib berishi kerak. Shuningdek, Rim Statutining 13-moddasiga

mos ravishda ushbu jinoyat XJS yurisdiksiyasiga davlatlarning murojaati, prokurorning o'z tashabbusi, yoki BMT Xavfsizlik Kengashi yo'llanmasi orqali tushishi mumkinligi belgilanadi.

Bundan tashqari, Xalqaro jinoiy sud doirasida ekotsidga oid tergov va sudlov amaliyoti samarali yuritilishi uchun maxsus ekologik ekspertiza institutini joriy etish, sudyalari va prokurorlar uchun ekologik huquq bo'yicha malaka oshirish dasturlarini shakllantirish, shuningdek, ekologik jinoyatlarga oid ilgari to'plangan xalqaro daliliy bazalarni to'plovchi mustaqil monitoring tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali nafaqat jinoyat sodir bo'lganini aniqlash, balki ekologik zarar ko'lamini huquqiy nuqtai nazardan asoslash osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, ekotsidni Rim Statutiga beshinchi jinoyat sifatida kiritish insoniyat tarixida ekologik javobgarlikni jinoiy shaklda tan olish yo'lida muhim burilish bo'ladi. Bu tashabbus huquqiy jihatdan asoslangan, siyosiy jihatdan global Janub manfaatlariga xizmat qiladigan, va amaliy jihatdan xalqaro jinoiy sud tizimining transformatsion salohiyatini kuchaytiradigan strategik harakat sifatida qaralishi lozim. Ekotsidni tan olish orqali xalqaro huquq nafaqat inson xavfsizligini, balki biosferaning barqarorligini ham jiddiy himoya qilish fazasiga o'tadi.

REFERENCE:

1. Galston, Arthur. Warfare with Herbicides in Vietnam. Natural History 1972, 81(2): 18-27.
2. The official website: United Nations, Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment. 1972. Available at: <https://www.un.org/en/conferences/environment/stockholm1972> [accessed on: 01.07.2025].
3. Independent Expert Panel for the Legal Definition of Ecocide. Commentary and Core Text. 2021. Available at: <https://www.stopecocide.earth/legal-definition> [accessed on: 01.07.2025].

4. Protocol Additional to the Geneva Conventions of 12 August 1949, and relating to the Protection of Victims of International Armed Conflicts (Protocol I). Geneva: ICRC, 1977, Articles 35, 55.
5. Drumbl, Mark A. Waging War Against the World: The Need to Move from War Crimes to Environmental Crimes. Fordham International Law Journal 1998, 22(1): 122-153.
6. The official website: United Nations, Rio Declaration on Environment and Development. 1992. Available at: https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_CONF.151_26_Vol.I_Declaration.pdf [accessed on: 01.07.2025].
7. Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-making and Access to Justice in Environmental Matters. Aarhus: UNECE, 1998.
8. Rome Statute of the International Criminal Court. The Hague: ICC, 1998, Articles 121, 123.
9. International Court of Justice. Legality of the Threat or Use of Nuclear Weapons, Advisory Opinion. ICJ Reports 1996, 226-267.
10. International Court of Justice. Barcelona Traction, Light and Power Company, Limited (Belgium v. Spain), Second Phase. ICJ Reports 1970, 32.
11. Charter of the United Nations. San Francisco: UN, 1945, Article 13.
12. The official website: International Criminal Court, Vanuatu calls for serious consideration of ecocide at the ICC. 2019. Available at: <https://www.icc-cpi.int/news/vanuatu-calls-serious-consideration-ecocide-icc> [accessed on: 01.07.2025].
13. European Parliament Resolution on the EU Biodiversity Strategy for 2030: Bringing nature back into our lives. 2021/2667 (RSP). Brussels: European Parliament, 2021.
14. Teclaff, Ludwik A. Beyond Restoration—The Case of Ecocide. Natural Resources Journal 1994, 34(4): 933-956.

15. Gauger, Anja et al. Ecocide is the Missing 5th Crime Against Peace. London: Human Rights Consortium, 2012, 45-78 bet.